



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI
BUYRUG‘I**

16 yanvar 2026 yil.

144-son

Toshkent sh.

Mavzuli malaka oshirish kursi bo‘yicha o‘qitish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-apreldagi “Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4666-sonli qarori va Sog‘liqni saqlash vazirligining 2020-yil 15-iyundagi “Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish bo‘yicha me‘yoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 160-sonli buyrug‘i ijrosini bajarish maqsadida

B U Y U R A M A N :

1. 2025/2026 o‘quv yili uchun Toshkent davlat tibbiyot universiteti Gematologiya, transfuziologiya va laboratoriya ishikafedrasida tashkil etilgan “Klinik amaliyotda immunoferment va polimeraz zanjirli reaksiya tahlili” mavzusida 144 kreditli xo‘jalik hisobidan mavzuli malaka oshirish kursida ilovada ko‘rsatilgan 9 nafar tinglovchilarning o‘qish muddati 2026-yil 5-yanvardan 2026-yil 5-fevralgacha etib belgilansin.

2. Malaka oshirish kursini muvaffaqiyatli yakunlagan tinglovchilarga belgilangan nusxadagi sertifikat berilishi ta‘minlansin.

3. Ushbu buyruq ijrosining nazorati O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Q.N.Xaitov zimmasiga yuklatilsin.

Rektor



Sh.A.Boymuradov